

O'zbekiston Prezidenti Eron Prezidenti bilan o'zaro manfaatli hamkorlikning istiqbolli yo'naliishlarini muhokama qildi



Turkmaniston poytaxtida o'tayotgan Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti sammiti doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Eron Islom Respublikasi Prezidenti Ibrohim Raisiy bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Mamlakatlarimiz o'rtasidagi o'zaro manfaatli munosabatlarni yanada rivojlantirish masalalari muhokama qilindi.

Ikki tomonlama savdo hajmining ortishiga ko'maklashish, sanoatda yangi kooperatsiya loyihalarini amalga oshirish, ikki mamlakat tranzit salohiyatidan samarali foydalanish va madaniy-gumanitar almashinuv dasturlarini ilgari surish maqsadida hamkorlikning institutsional mexanizmlarini faollashtirish muhim ekani ta'kidlandi.

O'zbekiston va Eron yetakchilari Afg'onistondagi bugungi vaziyatdan kelib chiqib mintaqalari tartibi hamda xalqaro tashkilotlar doirasidagi yaqin muloqotni davom ettirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratdilar.

Manba